


# JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar - dekabr oylarida)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar - dekabr oylarida, birlikda)






# Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1-yanvar holatiga koʻra, birlikda)



Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **18,2** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat koʻrsatish

Oʻrmon xoʻjaligi

Baliqchilik xoʻjaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



134



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 877




Ishlab chiqarish sanoati

15



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

54



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4 080 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,7 foizga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 111,9 foizga (jami sanoatdagi ulushi 95,0 foiz), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 103,7 foizga (jami sanoatdagi ulushi 3,3 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 foizga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 foiz), o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 360,0 foizga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 foiz), ko'payishi kuzatildi.



(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,2** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**8,2** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**10,4** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**50,0** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



**16,7** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar




**2,2** foizga kamaydi






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





# Oilaviy korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 2 382 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 573 taga yoki 131,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 140 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 479 taga yoki 128,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 727 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 201 taga yoki 138,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin.


# Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 16 660 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 699 taga yoki 119,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 623 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 312 taga yoki 117,4 foizga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 220 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 169 taga yoki 95,0 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 231 tani tashkil etib, ulardan 228 tasi yoki 98,7 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 10 taga yoki 104,5 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar - dekabr oylarida Jizzax viloyatida 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



113

yashash bo'yicha xizmatlar



1 497

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 610 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,2 foizga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar - 114,1 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 foiz), yashash bo'yicha xizmatlarning - 115,2 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 foiz) ga oshdi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

|   | 2018- yil  | 2019- yil  | 2020- yil  | 2021- yil  | 2022- yil  |
|---|------------|------------|------------|------------|------------|
| <b>Jami</b>   | <b>121</b> | <b>186</b> | <b>202</b> | <b>213</b> | <b>228</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                      |            |            |            |            |            |
| <b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>           | 20         | 30         | 34         | 37         | 41         |
| <b>Sanoat</b>   | 70         | 105        | 111        | 118        | 118        |
| <b>Qurilish</b>   | 4          | 9          | 8          | 12         | 14         |
| <b>Savdo</b>  | 16         | 22         | 29         | 24         | 26         |
| <b>Tashish va saqlash</b>                                 | 3          | 5          | 4          | 6          | 7          |
| <b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>          | 1          | 5          | 4          | 2          | 4          |
| <b>Axborot va aloqa</b>                                   | 2          | 3          | 3          | 3          | 3          |
| <b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b> | -          | -          | 1          | 2          | 2          |
| <b>Boshqa turlar</b>                                      | 5          | 7          | 8          | 9          | 13         |

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

|                        | Jami       | shundan:          |                   |
|------------------------|------------|-------------------|-------------------|
|                        |            | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>228</b> | <b>139</b>        | <b>89</b>         |
| <b>Jizzax shahri</b>   | <b>71</b>  | <b>45</b>         | <b>26</b>         |
| <b>tumanlar:</b>       |            |                   |                   |
| <b>Arnasoy</b>         | <b>10</b>  | <b>6</b>          | <b>4</b>          |
| <b>Baxmal</b>          | <b>9</b>   | <b>7</b>          | <b>2</b>          |
| <b>G'allaorol</b>      | <b>19</b>  | <b>11</b>         | <b>8</b>          |
| <b>Sharof Rashidov</b> | <b>22</b>  | <b>11</b>         | <b>11</b>         |
| <b>Do'stlik</b>        | <b>9</b>   | <b>5</b>          | <b>4</b>          |
| <b>Zomin</b>           | <b>17</b>  | <b>8</b>          | <b>9</b>          |
| <b>Zarbdor</b>         | <b>5</b>   | <b>4</b>          | <b>1</b>          |
| <b>Zafarobod</b>       | <b>8</b>   | <b>2</b>          | <b>6</b>          |
| <b>Mirzacho'l</b>      | <b>5</b>   | <b>2</b>          | <b>3</b>          |
| <b>Paxtakor</b>        | <b>8</b>   | <b>7</b>          | <b>1</b>          |
| <b>Forish</b>          | <b>33</b>  | <b>24</b>         | <b>9</b>          |
| <b>Yangiobod</b>       | <b>12</b>  | <b>7</b>          | <b>5</b>          |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 71 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,1 foiz), Forish tumanida 33 ta (14,5 foiz), Sharof Rashidov tumanida 22 ta (9,6 foiz), G'allaorol tumanida 19 ta (8,3 foiz), Zomin tumanida 17 ta (7,5 foiz), Yangiobod tumanida 12 ta (5,3 foiz), Arnasoy tumanida 10 ta (4,4 foiz), Baxmal tumanida 9 ta (4,0 foiz), Do'stlik tumanida 9 ta (3,9 foiz), Zafarobod tumanida 8 ta (3,5 foiz), Paxtakor tumanida 8 ta (3,5 foiz), Mirzacho'l tumanida 5 ta (2,2 foiz) hamda Zarbdor tumanlarida 4 ta (1,8 foiz) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (27,9 foiz), Sharof Rashidov (14,3 foiz), G'allaorol (8,9 foiz), Zomin (8,3 foiz), Forish (6,9 foiz), Baxmal (6,6 foiz), Zarbdor (5,1 foiz), Paxtakor (4,7 foiz), Do'stlik (4,4 foiz), Mirzacho'l (4,0 foiz), Arnasoy (3,5 foiz), Zafarobod (3,1 foiz) va Yangiobod (2,3 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (23,5 foiz), Sharof Rashidov (11,2 foiz), G'allaorol (10,2 foiz), Zomin (9,6 foiz), Forish (7,8 foiz), Baxmal (7,8 foiz), Zarbdor (5,8 foiz), Do'stlik (5,7 foiz), Paxtakor (4,8 foiz), Mirzacho'l (4,3 foiz), Zafarobod (3,4 foiz), Arnasoy (3,6 foiz), Yangiobod (2,3 foiz) tumanlari ulushiga ega.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (32,3 foiz), Sharof Rashidov (17,4 foiz), Zomin (7,3 foiz), Baxmal (7,0 foiz), Forish (6,2 foiz), G'allaorol (6,2 foiz), Zarbdor (4,9 foiz), Do'stlik (4,5 foiz), Mirzacho'l (3,4 foiz), Arnasoy (3,4 foiz), Paxtakor (3,4 foiz), Zafarobod (2,4 foiz) va Yangiobod (1,6 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2022- yilning yanvar - dekabr oylarida, birlikda)


19



2022- yil yanvar - dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (33,1 foiz), Zomin (13,3 foiz), G'allaorol (11,8 foiz), Paxtakor (10,7 foiz), Sharof Rashidov (8,8 foiz), Zarbdor (7,4 foiz), Baxmal (4,5 foiz), Do'stlik (4,0 foiz), Zafarobod (2,5 foiz), Arnasoy (2,2 foiz), Yangiobod (0,6 foiz), Mirzacho'l (0,6 foiz), Forish (0,4 foiz) tumanlari ulushni qayd etadi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1 ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.





Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 72 221-51-24**